



DEMENSIYA (AQLI ZAIFLIKNI KEYINCHALIK PAYDO BO'LISHI)

*Andijon davlat pedagogika instituti**Maxsus pedagogika: Logopediya yo'nalishi**I-kurs talabasi Yakubova Umida*

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqli zaiflik nima ekanligi va demensianing qanday shakllanishi uning turlari, u qanday nuqson ekanligi haqida so'z boradi. Ushbu kasallikni bolalarda qanday yoshi kattalarda qanday rivojlanishi haqida so'z olib boriladi.

Kalit so'zlar: organik demensiya, olegofreniya, psixopatologik ko'rinish, global demensiya, affektiv buzilishlar, neyrodinamik buzilishlar

XVII asr oxirlarida psixopotolog olim Eskirol aqli zaiflikni tug'ma bo'lishi va keyinchalik shu alomatlar paydo bo'lishi, idrok susayishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bolalar ham bo'lishi haqida ma'lumotlar bergan.

Aqli zaiflik nima o'zi? U qanday kasallik? Degan savollar bo'lishi tayin albatta.

Oligofrenopedagogika fani aqli zaiflikni o'rganadigan fandir.

Oligofreniya (yun."oligos"-kam, "fren"-aql) so'zlaridan olingan bo'lib, esi past, aqli past demakdir.

Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyatini pasayib ketishi va nuqsonlar umrbod saqlanib qolishi bilan boshqa anomal bolalardan farq qiladi.

Oligofrenopedagogika fanining mavzu bahsi aqli zaif bolalardir, ya'ni uning fazifasi ham aqli zaif bolalar ta'lim tarbiyasi, ulardagи nuqsonni tuzatish, korreksion yo'llarni belgilab berishdan iborat.

Quyida aqli zaiflikni asosiy belgilarini ko'rib o'tsak:



- Bosh miyada organik buzilishning mavjudligi
- Bilish faoliyatini chuqr buzilganligi
- Bilish faoliyatining buzilganligining turg'un xarakterdaligi kabilar kiradi.

Asosan oligofreniyaning 3 darajasi farq qiladi

1. Debil
2. Imbetsil
3. Idiot

Demensiya- orttirilgan aqli zaiflik. U global (yalpi, bir biriga o'tgan) va Lakunar aqli zaiflikka bo'linadi.

Yalpi aqli zaiflikda aqliy qobiliyat qo'pol ravishda buziladi. Xotira keskin buziladi. Global demensiya bosh miyaning og'ir shikastlanishi(insult, gippertoniya) keksa yoshda avj olishi mumkin.

Lokal (qisman) aqli zaiflikda aql qisman izdan chiqadi, biroq fikriy jarayonlar sekinlashadi, xotira pasayadi. Lakunar zaiflik oldidan og'ir somatik kasallikga uchraydi. Masalan: tug'ma aqli zaiflik yoki oligofren bolalar normal rivojlanmagan, aqliy faoliyati atipik holatda, miya kamchiliklari mavjud bo'lsa, demensiyyada bolalarning normal rivoji biror asab-psixik kasallikka duchor bo'lguncha davom etaveradi. Agar o'sha kasallik zo'raya borsa, miya faoliyati asta sekin buzila boshlaydi va oqibatda aqli zaiflikka, ya'ni demensiyyaga olib keladi.

Demensiya bo'lgan bolalar o'z aql-idrokini biroz bo'lsada susayotganini sezadi va bundan qattiq izardrob chekadi. Ba'zi hollarda esa aksincha bemor bola o'z psixik holatini baholay olmaslik, beparvo, yon atrofdagilarga e'tiborsiz, harakatlari g'ayri tabiiy bo'lishiga qaramasdan ilgari o'zlashtirgan bilimi va ko'nikmalari saqlangan bo'ladi.

Demensiyaing psixopatologik ko'rinishi bemor miyasi qaysi yoshda ayniy boshlaganligiga ham bog'liq (ya'ni, maktabgacha, yoshlik,qarilik davri).

Demensiya rivojlanishiga olib keladigan asosiy omillar:

- Altsgeymer kasalligi: bu eng keng tarqalgan demensiya turi bo'lib, miya hujayralarining o'limiga olib keladi va xotira, fikrlash va boshqa intellektual funktsiyalarni pasaytiradi.
- Vaskulyar demensiya: miya tomirlarining muammolari tufayli yuzaga keladi masalan, insult yoki tomirlarning torayishi
- Lewy tanachalar demensiyasi: miya hujayralarda Lewy tanachalarining to'planishi bilan bog'liq bo'lib, bu xotira va e'tibor muammolariga olib kelishi mumkin.
- Parkinson demensiyasi: parkinson kasalligi bilan birga rivojlanishi mumkin va harakatlarni nazorat qilish va kognitiv funktsiyalarni pasaytiradi.
- Frontal temporal demensiya: miyaning frontal va temporal qismlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib shaxsiyat va xulq-atvor o'zgarishlari keltirib chiqarishi mumkin.
- Boshqa sabablar: ba'zi hollarda demensiya infektsiyalar, travmalar, vitaminlar yetishmasligi yoki miya o'smalari kabi boshqa omillar tufayli rivojlanishi mumkin.

Demensiyaning sabablarini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvlar va baholashlar o'tkazish muhimdir.

Demensiya turli klinik shakllarga ega bo'lib, har biri o'ziga xos simptomlar va rivojlanish usullariga ega.

Demensiya odatda 3 ta asosiy bosqichda rivojlanadi:

1. Boshlang'ich bosqich: ushbu bosqichda demensiya belgilari yengil bo'lib, bemor oddiy faoliyatini bajarishda muammo sezmaydi. Ammo xotira va fikrlashda sezilarli pasayishlar bo'lishi mumkin.
2. O'rta bosqich: ushbu bosqichda kasallik kuchayib, kundalik hayotdagi qiyinchiliklar sezilarli darajada oshadi. Bemorga boshqa odamlardan yordam talab qilinadi.

3. Og'ir bosqich: bu bosqichda bemor o'z o'ziga g'amxo'rlik qila olmaydi. Xotira to'liq yo'qolishi, nutq bilan bog'liq qiyinchiliklar va shaxsiyat o'zgarishlari kuchayishi mumkin.

Hozirgi kunda demensiyanı to'liq davolashning imkoni yo'q, ammo ba'zi dorilar va terapevtik usullar bemor hayotini sifatini yaxshilashga yordam beradi. Asosan quyidagi usullar qo'llaniladi

- Psixoterapiya va reabilitatsiya: maxsus psixoterapiya va qo'llab-quvvatlash dasturlari bemorga moslashish va o'zini qulay his qilishda yordam beradi.
- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: oilaviy qo'llab-quvvatlash va parvarish bemorning ruhiy holatini yaxshilashda muhim ro'l o'ynaydi.
- Hayot tarzini yaxshilash: sog'lom ovqatlanish, jismoniy mashqlar va uyqu gigiyenasi kabi omillar demensiyaning rivojlanishini sekinlashtirishga yordam berishi mumkin

XULOSA: Demensiya- bu murakkab kasallik bo'lib, u nafaqat bemorning hayotiga ,balki uning yaqinlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bemorlarning sog'lom va faol hayot kechirishlari uchun o'z vaqtida tashxis qo'yish va parvarish qilish muhimdir. Profilaktika choralariga riosa qilish va sog'lom turmush tarzini saqlash orqali demensiya rivojlanish xavfini kamaytirish mumkin. Ayniqsa bolalarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga alohida ahmiyat berish zarur.

Shu sababdan, demensiya oldini olish va u bilan kurashish borasidagi tadqiqotlar keljakda rivojlanib, ko'plab odamlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.R.Pulatxo'jayeva, Defekta logiyaning klinik asoslari,O'quv qo'llanma Toshkent 2013 y
2. D.Madazizova. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2017

3. Q.Sodiqova, S.X.Aripova,G.A.Shaxmuradova. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi.
Yangi asr avlodi 2009